

KONSTITUTSIYA – MUSTAQILLIKNING HUQUQIY POYDEVORI

Tursunpo'latov Akmaljon Ravshabek o'gli

Namangan IIV akademik litseyi huquqshunoslik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ilmiy maqola bosh qomusimizning yaratilishi, uni ishlab chiqishdagi mashaqqatlar, uni qabul qilish jarayoni, unga o'zgartirishlar kiritilishi hamda mustaqilligimizning asosiy tayanchlaridan biri ekanligi haqida.

Tayanch so'zlar: Konstitutsiya, Oliy Kengash, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov, Konstitutsiyaviy komissiya, mustaqillik, bosh qomus, matbuot, umumxalq muhokamasi, 1992-yil 8-dekabr.

*Konstitutsiya – xalqimizning siyosiy-huquqiy tafakkuri mahsuli,
asriy qadriyatlarimizning beqiyos timsolidir.*

Sh.M. Mirziyoyev

Konstitutsiya so'zi lotinchadan olingan bo'lib "constitutio" – tuzilish, tuzuk degan ma'nolarni anglatadi. U har bir davlatning bosh qomusi hisoblanadi. U davlatning mavjudligini aks ettiruvchi asosiy ramzlardan biridir. Konstitutsiya davlat tuzilishini, hokimyat va boshqaruv organlar tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, fuqarolarning huquq hamda erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yaratilish tarixi o'ziga xos xususiyatga ega. Konstitutsiyani tayyorlash, muhokama etish va qabul qilish bir nechta bosqichlardan iborat. Uni tayyorlash haqidagi dastlabki g'oya mustaqillik e'lon qilinmasdan oldin, ya'ni 1990-yil mart oyidagi Oliy Kengashning o'n ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ilgari surilgan. Oliy Kengash qarori bilan 1990-yil 21-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov raisligida davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislardan iborat 64 nafar a'zoni o'zida jamlagan Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi va uning loyihasi komissiya tomonidan 2 yildan ortiq vaqt mobaynida tayyorlandi. O'zbekiston Konstitutsiyasining tashabbuskori va asosiy muallifi Birinchi Prezident Islom Karimov edi. Birinchi Prezidentimiz Konstitutsiyaviy komissiya ish boshlashi bilan mamlakatimizning o'ziga xos jihatlarini va xususiyatini munosib ravishda aks ettiradigan, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan, jahon tajribasini, demokratiya va eng rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyaviy qonunchiligi erishgan yutuqlarni inobatga oladigan Asosiy Qonun loyihasini tayyorlashga bevosita rahbarlik qildi. Birinchi Prizidentimiz xizmatlari haqida Rossiyalik siyosatshunos olim N. Mishin

hamda O'rta Osiyo bo'yicha taniqli olim professor Levitin o'z asarlarida O'zbekiston Respublikasining 1992- yilgi Konstitutsiyasi jahondagi ilg'or demokratik davlatlar Konstitutsiyalari bilan bir qatorda turganligi va bunda Islom Karimovni yuksak xizmatlarini e'tirof etdilar. Jumladan, Amerikalik professor Donald Karalayn "O'zbekistan va O'rta Osiyo istiqboldagi o'tmish va hozirgi kun" nomli kitobida "Islom Karimov Konstitutsiyasi" deb nomlangan bo'lim mavjud bo'lib, bo'limda uni yaratishida birinchi prizidentimizni yuksak xizmatlarini e'tirof etib tom ma'noda konstitutsiyani ijodkori ekanligini ko'rsatib o'tdi. 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilindi hamda "Ozbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Davlat mustaqilligini e'lon qilish hamda uni qonun asosida mustahkamlab qo'yish yangi konstitutsiyani qabul qilish yo'lidagi yana bir ulkan odim bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish davomida uni 2 marta xalq muhokamasiga qo'yilgan. Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan ishlab chiqilgan loyiha birinchi marotaba 1992-yil 26-sentabr kuni matbuotda chop etildi va umumxalq muhokamasi keng tus oldi. Muhokamada mamlakatimizning katta yoshdagi aholisining deyarli hammasi ishtirok etdi. Matbuotda, radioeshittirish va teleko'rsatuvlarda qizg'in bahs-munozaralar bo'ldi. Ko'plab uchrashuvlar o'tkazildi, Konstitutsiya loyihasiga doir masalalar bo'yicha suhbatlar, anjumanlar tashkil qilindi. Konstitutsiyaviy komissiyaga fikr-mulohazalar bildirilgan 600 taga yaqin xat kelib tushdi. Respublika matbuotining o'zida Konstitutsiya loyihasiga bag'ishlangan yuzdan ortiq materiallar e'lon qilindi. Fuqarolarimiz bildirgan takliflar soni 5 mingdan oshib ketdi. Konstitutsiya loyihasi o'tkazilgan muokamalar davomida kelib tushgan takliflar asosida tuzatishlar kiritildi va qayta ishlandi. So'ngra, 1992 yil 21- noyabrda umumxalq muhokamasini davom ettirish uchun Konstitutsiya loyihasi ikkinchi marta gazetalarda chop etildi. Konstitutsiya loyihasining yangi variantida umumxalq muhokamsining dastlabki bosqichida kelib tushgan ko'plab fikr-mulohazalar va takliflar o'z ifodasini topdi. Xalq muhokamalaridan so'ng 1992-yil 6-dekabrda Konstitutsiya loyihasi oxirgi marta muhokama etildi. Oliy Kengash sessiyasida muhokama qilish uchun kiritilgan loyiha 80 ga yaqin o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. Bunda jahon konstitutsiyaviy tajribasinining bir qator ilg'or jihatlari hisobga olindi. Konstitutsiya loyihasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik kengashi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya kabi demokratik davlatlar mutaxassislaringin sinchkov ekspertizasidan o'tdi. Natijada 1992-yil 8-dekabrda mustaqil O'zbekiston Respublikasining bosh qomusi qabul qilindi. Bu qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 ta moddadan iborat edi. Konstitutsiyamiz qabul qilingan

kuni davlatimiz yangidan tug‘ildi hamda haqiqiy mustaqilligimizga mustahkam huquqiy poydevor qo‘yildi.

Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi yangi mustaqil jamiyatning ishonchli huquqiy kafolatlarini shakllantirdi va mustahkamladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Konstitutsiyamiz – Asosiy Qonunimiz qabul qilinishi bilan biz O‘zbekiston kelajagini, yangidan barpo etilayotgan davlatimizning chuqur mazmuni, ma’no va mohiyatini, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, gumanitar va ma’naviy taraqqiyotning, yurtimiz qiyofasini, uning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rnini va nufuzini tubdan o‘zgartirib yuborgan mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilishning pirovard maqsadlarini aniq-ravshan belgilab oldik”. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2001-yil 4-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g’risida” Prezident Farmoni chiqdi. Farmon asosida barcha ta’lim muassasalarda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyani o’rgatish yo’lga qo‘yilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak bir nechta muhokamalardan so’ng davlatimizning asosiy bosh qomusi qabul qilindi. Uni yaratishda dunyoning 97 ta mamlakati to’plagan ilg’or konstitutsiyaviy tajriba hisobga olindi. Davlat va jamiyat hayoti, uning barqaror taraqqiyoti kafolati Konstitutsiya hisoblanadi. Unda millat birligi va hamjihatligi, har bir fuqaroning haq-huquqlari hamda burch va majburiyatlar, insonparvar huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish asosi ekanligi ko’rsatilgan. Bosh qonunimizni chuqur o‘rganish, anglash, hayotga joriy etish va unga so’zsiz amal qilish – barchamizning sharaflı burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Eshov B. O’zbek davlatchiligi va boshqaruv tarixi. –T.,2012.
2. Sh.A.Saydullayev:”Davlat va huquq nazariyasi”, darslik-Ikkinchi nashr Toshkent-2021.
3. Odilqoriev X. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. - T.: Adolat, 2018.
4. J.Yoqubov.E.Hayitboyev.“Huquqshunoslik”.Yangi asr avlodи.2006.

Internet saytlari:

1. w.w.w. arxiv.uz
2. w.w.w. edu.uz
3. w.w.w. ziyonet.uz